



## Alexander Konstantinovich Borovkov is an eminent linguist scholar

Aziza SALIMOVA<sup>1</sup>

Urgench State University named after Abu Rayhan Biruni

### ARTICLE INFO

#### **Article history:**

Received August 2025

Received in revised form

15 September 2025

Accepted 25 September 2025

Available online

15 October 2025

#### **Keywords:**

turkologist scholar,  
phonetics,  
lexicology,  
Academy of Sciences,  
professor,  
scientific works,  
Uzbek,  
Uyghur,  
Karakalpak languages,  
sound system,  
dialects,  
Iranization theory,  
ancient Turkic,  
Old Uzbek language,  
urban speech,  
internal development,  
newspaper,  
journal,  
scientific papers,  
loanwords,  
phonological system.

### ABSTRACT

This article aims to examine the activities of Alexander Konstantinovich Borovkov as an accomplished linguist, explore his scientific publications, and study their significance. There are scholars who have deeply researched various scientific fields, conducted analyses, and provided substantiated findings. This article briefly highlights how Alexander Konstantinovich Borovkov, as a Turkologist, has also made several important contributions to his field.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss8/S-pp211-216>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## Aleksandr Konstantinovich Borovkov yetuk tilshunos olim

### ANNOTATSIYA

#### **Kalit so'zlar:**

turkolog olim,  
fonetika,

Ushbu maqolada Aleksandr Konstantinovich Borovkovning yetuk tilshunos olim sifatida olib borgan faoliyati, yozgan ilmiy

<sup>1</sup> Teacher, Urgench State University named after Abu Rayhan Biruni.  
E-mail: azizakhansalimova@gmail.com

leksikologiya,  
Fanlar akademiyasi,  
professor,  
ilmiy ishlar,  
o'zbek,  
uyg'ur,  
qoraqalpoq tillari,  
tovush tizimi,  
shevalar,  
eronlashish nazariyasi,  
qadimgi turk,  
eski o'zbek tili,  
shahar so'zlashuvi,  
ichki taraqqiyot,  
gazeta,  
jurnal,  
ilmiy ishlar,  
o'zlashmalar,  
tovush tizimi.

kitoblari va ularni o'rganish maqsad qilib olingan. Har bir fanni chuqur o'rganib, bu bo'yicha tahlillar olib borgan va asoslab bergan olimlar bor. Aynan Aleksandr Konstantinovich Borovkov ham turkolog olim sifatida bir qancha ishlarni amalga oshirganligi haqida ushbu maqolada qisqacha ma'lumotlar keltirilgan.

## **Александр Константинович Боровков - выдающийся учёный-лингвист**

### **АННОТАЦИЯ**

#### **Ключевые слова:**

тюрколог,  
фонетика,  
лексикология,  
Академия наук,  
профессор,  
научные труды,  
узбекский,  
уйгурский,  
каракалпакский языки,  
звуковая система,  
диалекты,  
теория иранизации,  
древнетюркский,  
древнеузбекский язык,  
городская речь,  
внутреннее развитие,  
газета,  
журнал,  
научные труды,  
заимствования,  
звуковая система.

Целью данной статьи является исследование научной деятельности Александра Константиновича Боровкова как выдающегося лингвиста и тюрколога, а также анализ его трудов и их научного осмысления. Представлен обзор исследований учёных, подробно изучавших отдельные направления его наследия, с критическим анализом и аргументацией их выводов. В статье также приводится краткая информация о вкладе А. К. Боровкова в тюркологию.

Har bir fan sohasida ilmiy faoliyat olib borib va izlanishlari davomida asosli dalillar keltirib o'sha fanga o'z hissasini qo'sha olgan, ko'zga ko'ringan olimlar bor. Xususan, o'zbek tilshunosligining ko'pgina sathlarida-fonetika, morfologiya, leksikologiya, orfografiya, orfoepiya, leksikografiya, dialektologiya sathlarida ilmiy izlanishlar olib borib fan sohasida o'z o'rnini yarata olgan olimlardan biri Aleksandr Konstantinovich Borovkovdir.

Aleksandr Konstantinovich Borovkov atoqli turkolog va sharqshunos, O'zbekiston va Rossiya Fanlar akademiyalarining muxbir a'zosi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, professor, yetuk tilshunos olimdir.

A.K.Borovkov o'zbek tilshunosligining rivojlanishi va shakllanishida salmoqli rol o'ynagan tilshunoslardan hisoblanadi. Olim 1904-yilning 16-martida Toshkentda ishchi oilasida tug'ilgan, shuningdek, boshlang'ich, o'rta va oliy ma'lumotlarni ham shu yerning o'zida olgan. A.K.Borovkov O'rta Osiyo davlat universitetining sharqshunoslik fakultetini tugatgan. Borovkov ilmiy va pedagogik faoliyatini birga olib borgan. U 20 yoshidan boshlab O'rta Osiyo davlat muzeyida ilmiy xodim, O'rta Osiyo davlat universitetining tibbiyot va qishloq xo'jaligi fakultetlarida o'zbek tili o'qituvchisi vazifalarida ishladi va shu paytning o'zida universitetning sharqshunoslik fakultetida tahsil ham oldi. 1928-yilda universitetni muvaffaqiyatli tugatib, Leningrad Davlat universitetida o'zbek va uyg'ur tillaridan dars bera boshladi va shu davr ichida Rossiya Fanlar akademiyasining Til va tafakkur instituti aspiranturasiga o'qishga kirdi. 1929 yilda aspiranturani tamomlab, Leningrad tilshunoslik ilmiy tekshirish institutida, 1934 yildan 1960 yilgacha esa Rossiya Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik institutida ilmiy xodim, bo'lim mudiri va ilmiy ishlar bo'yicha direktor muovini lavozimlarida ishlaydi. 1961 yildan umrining oxirigacha (1962) Rossiya Fanlar akademiyasi Tilshunoslik institutining Leningrad bo'limida direktor lavozimida faoliyat ko'rsatadi.

Yuqorida keltirib o'tganimizdek, A.K.Borovkovning ilmiy faoliyati talabalik yillaridayoq boshlangan edi. U turkolog sifatida o'zbek, uyg'ur, qoraqalpoq, qorachoy-bulg'or tillari bo'yicha keng doirada tadqiqotlar olib bordi. Olim turkiy tillar umumiy va xususiy masalalari yuzasidan ilmiy asarlar yaratdi. Jumladan, "Карачаево-балгарский язык", "Очерки карачаево-балгарской грамматики", "Узбекский литературный язык", "О очередных вопросах изучения каракалпакского языка", "Учебник уйгурского языка", "Новое учение о языке", "Природа тюркского изафета" va boshqalar.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, A.K.Borovkov uyg'ur tili bo'yicha yozgan asari uchun fan nomzodi unvoniga sazovor bo'lgan.

A.K.Borovkov turkolog olim sifatida rus tilshunosi professor E.D.Polivanovning ilmiy izlanishlari ta'siri ostida shakllangan. Borovkov ilmiy izlanishlarida, ijod uslubida lingvistik kuzatuvning to'liqligini, aniqligini ko'ramiz. Bunday o'ziga xoslik esa Polivanov ijodida ham mavjud bo'lgan. Shuningdek, A.K.Borovkov Leningrad turkologiya maktabining atoqli arboblari V.V.Radlov, F.Ye.Korsh, P.M.Melioranskiy, A.N.Samaylovich, S.Ye. Malovlarning an'alarini davom ettirdi.

O'zbek tili fonetikasi amaliy ehtiyojlarni qondirish, o'zbek tilining tovush tizimiga mos harflarni belgilash zaruratidan kelib chiqqan holda shakllandi va rivojlandi[1].

Olimning fonetika sathidagi ilmiy izlanishlarini ko'radigan bo'lsak, u o'zbek tili fonetikasidagi eronlashish nazariyasiga e'tibor qaratgan bo'lib, o'zbek shahar shevalarida 6 ta, qishloq shevalarida 8 ta yoki 9 ta unli borligini qayd etadi[2]. Shu nuqtai nazardan "eronlashish nazariyasi" o'zbek tilida o'ziga xoslikni (singormonizmni) yo'qotdi, chunki shaharning asosiy va azaliy aholisi tojiklar bo'lgan. O'zbeklar esa bu tilni o'zlashtirib "eron" fonetikasini asosiy xususiyatlarini

saqlab qolishgan. Boshqa tomondan o'zbeklarning o'zlari shahar so'zlashuvining ta'siriga bo'y sunib, turkiy fonetikaning azaliy o'ziga xos xususiyatlarini yo'qotishgan. Shuningdek, fonetik tuzilishdagi o'zgarishni faqat "eronlashish" da deb ham bo'lmaydi. Chunki Xorazm so'zlashuvida, Ozarbayjon tilida bunday holatlar kuzatilmaydi.

Bunday fikrlarni Ye.D. Polivanov ham "Toshkent dialekti tovush tarkibi" maqolasida qayd etib o'tgan ya'ni Toshkent dialektida 6 ta unli 22 ta undosh tovush mavjudligini bayon qiladi. Qadimgi turk va eski o'zbek tilida u-ü, o-ö unlilarining keyinchalik bir qator shahar shevalarida zidlanish belgisining yo'qolganligi singormonizmning yo'qolishiga sabab bo'lganligini ta'kidlaydi [3]. Ye.D. Polivanov singormonizmni yo'qolishiga o'zbek tilining ichki taraqqiyoti natijasi deb emas, balki tashqi omil- eron tillari ta'siri deb baholagan. Borovkov fikricha esa, lug'at va ayrim qatlam o'zlashmalari tilning grammatik qurilishi va umumiy tovush tizimiga ta'sir etmasa-da, fonetika va morfologiyaning ayrim qismlariga sezilarli ta'siri bo'lganligini keltiradi. Masalan, fors arab o'zlashmalari o'zi bilan birga yangicha talaffuz ko'nikmalarini olib kelgan. Masalan f, p tovushlari o'zbek tili talaffuzi jarayonida aralash holda qo'llanilganligi kuzatiladi: pabrik (fabrika), aftobus (avtobus), parosat (farosat) kabi. Chunki f undoshi o'zbek tilida rus tilidagi kabi azaliy emas, balki o'zlashgan tovushdir. Umuman yangi o'zlashmalar birinchi navbatda tovushlarning talaffuzida biroz farqlanishlarni yuzaga keltirgan, xususan, rus qorishig'i ц tovushi o'rnida s, щ o'rnida ch qo'llanilish holatlari: sex (цех), sentner (центнер), chor (цар), chotka (щетка) kabi.

A.K. Borovkov ilmiy faoliyati davomida leksikologiya sathiga ko'proq e'tibor qaratdi. Ma'lumki VIII asrda arablar istilosidan keyin arab tili va yozuvi katta hududga, jumladan, arab mamlakatlariga, Eron, Hindiston, Turkiya, O'rta Osiyo Povolje, Krim va boshqa davlatlarga tarqaldi. Shu tariqa arab tili uzoq vaqt mobaynida Sharqiy musulmon doirasida umumiy adabiy til sifatida katta rol o'ynadi. Arab tili din hamda fan tili sifatida o'zbek tili taraqqiyotiga ham ulkan hissa qo'shdi. Jumladan, yil hisobi, oylarning nomlanishi, ba'zi ilmiy terminlar, morfologik elementlar, shuningdek ba'zi bog'lovchilar, jenskiy rod oxiriga "a" qo'shilishi (Raxima, muallima), arab tilidagi ko'plik shakllari (xaloyiq, xalq) kabilar o'zlashdi. Arab tili bilan bir qatorda o'zbek tili va adabiyotining rivojlanishida fors-tojik tili ham katta ta'sir ko'rsatdi. Masalan, fors tilidan o'zbek tiliga hafta kunlarining nomlari, ko'p sonli ishlab chiqarish va xalq xo'jaligi atamaları ham kirib keldi. Tilimizning leksik qatlami yildan yilga yangi so'zlar bilan boyib borayotganini olim o'sha davr gazetaları orqali o'rganib, tahlil qilgan va ilmiy asarlarida yoritib o'tgan. Olimning izohlashicha, 1923 yilning 25 martidagi Samarqandning "Zarafshon" gazetasi № 32-sonida 4533 ta so'z qatnashgan bo'lib, Borovkov bularni foizda quyidagicha keltirgan:

Ushbu gazetada fors-arabcha so'zlar 37/4% ni, ruscha so'zlar 2% ni, keyinchalik 1934 (11 yildan so'ng) "Qizil O'zbekiston" gazetasi V.V. Reshetov tomonidan o'rganilganda, bu gazetada fors-arabcha so'zlar 27% ni, ruscha so'zlar 12% ni, 1940 yilning 6- fevralidagi (6 yildan so'ng) "Qizil O'zbekiston" gazetasining № 30-sonida A.K. Borovkovning kuzatishicha fors-arabcha so'zlar 25% ni, ruscha so'zlar 15% ni tashkil etgan.

Yuqoridagilardan ko'rishimiz mumkinki, leksikamiz yildan yilga yangi so'zlar bilan boyib borgan va o'zbek tili lug'atlarida ham o'zgarishlar yuz bera boshlagan. Bunday holat fors-tojik tillarining o'zbek tili bilan yuz yillik aloqasi natijasini

ko'rsatsa-da, ammo boshqa holatlar ham o'zbek tilining eronlashishiga sabab bo'lganligini ta'kidlab[4], olim yana gazetalarga murojaat etgan.

A.K.Borovkovning "Изменения в области узбекской лексики и новый алфавит" nomli asarida boshqa tillardan o'zlashgan morfologik elementlar haqidagi fikr-mulohazalarida quyidagicha yondashuvni ko'rishimiz mumkin;

-forscha o'zlashmalar ko'proq adabiyot orqali o'zlashib zamonaviy o'zbek tilida o'zining adabiy shakliga ega bo'lgan;

-forscha o'zlashmalar o'zbek tiliga mustaqil kirib borgan;

-fors tilidan kirib kelgan elementlar o'zbek morfologiyasida o'z o'rnini topgan.

Shu o'rinda Borovkovning fors-arab tilidan o'zlashgan morfologik elementlar to'g'risidagi fikr-mulohazalarini keltirib o'tish joiz. Olimning kuzatishicha arab tilidan o'zbek tiliga hamma grammatik kategoriyalar kirib kelmagan bo'lsa-da, bir nechta morfologik elementlar o'zlashgan, masalan, **-iy**-oddiy, amaliy, faxriy, **-viy**-ommaviy, oilaviy singari. Borovkov gazetalarni tahlil qilish orqali 32 ta bunday holatni kuzatgan. Ushbu turdagi ba'zi sifatlar arab tilidan kelib chiqqan so'zlar emas, masalan, devoriy (devor forscha) kabi.

Shuningdek, **-an** qo'shimchasi bilan yasalgan ravishlar (Borovkov gazetada 7 ta holatni kuzatgan)-asosan, ba'zan, masalan, nisbatan, qisman, shaxsan, umuman kabi.

Turli arab o'zlashmalari o'zbek tilidan mustahkam o'rin oldi va bu o'zlashmalardan o'zbek suffikslari orqali yangi so'zlar yasaldi: **-chi**-a'lochi, iste'molchi, tashkilotchi; **-li**-ahamiyatli, jasoratli, irodali; **-cha**-shahobcha; **-gi**-hozirgi; **-la**-ifodala, tarbiyala kabi.

Arab tilidan o'zlashgan morfologik elementlar bilan bir qatorda fors tilidan o'zlashgan morfologik elementlar ham o'zbek tilidan joy olgan, jumladan, ravish yasovchilar: **-ona** – bahodirona; so'z yasovchilar: **-iston**, **vor**, **-dar**, **-soz**, **kash**, **-gor**, **-paz**, **-mand**, **-zar**, **-furush**, **-parvar** guliston, ulug'vor, bilimdon, soatsoz, mehnatkash, duradgor, guruhboz, oshpaz, hunarmand, qamishzor, ilmparvar) kabilar.

XIX asrning 2-yarmidan ya'ni 1905 yildan rus tili orqali o'zbek tiliga ruscha-internatsional so'zlar kirib kela boshladi. Bunday o'zlashmalar orqali o'zbek tilining lug'at tarkibiga ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy so'z va atamalar yuzaga kela boshladi. A.K.Borovkov ushbu gazetada[5] 238 ta ruscha-internatsional so'zlar borligini kuzatgan: agitator, agrobiolog, brigada, brigadir, delegat, doktor, ekonomika, gospital, instructor, reforma kabi. Endi bunday o'zlashmalar bilan birga yangi morfologik shakllar-ot yasovchi va sifat yasovchi qo'shimchalar kirib keldi: traktorchi (тракторист), tankchi (танкист), ordenli (орденный), agentlik (агентство), kandedatlik (кандедатский) va hokazo. Shuningdek, ruscha-internatsional so'zlar orqali o'zbek tiliga murakkab fe'l shakllari kirib kelgan.

Professor A.K.Borovkov sifat turkumiga oid so'zlarga ham alohida to'xtalib o'tgan. Olimning ta'kidlashicha, o'zbek tilida belgi-sifat ma'nosini ifodalovchi maxsus (hamma sifatlar uchun birdek qo'llana oluvchi) morfologik ko'rsatkich yo'q. Ba'zi bir so'zning ham ot, ham sifat, ham ravish vazifalarida kela olishi ko'proq ana shuning uchundir. Masalan, mavhum otlar sifatni anglatib kelishi: temir yo'l-железная дорога, oltin soat-золотые часы.

**-li** qo'shimchali nisbiy sifatlar mavhum otlarga qo'shilib egalikni, shaxsiylikni ifodalab keladi: ordenli-orden egasi. **-gi** qo'shimchali nisbiy sifatlar faqat otlarga



qoʻshilib kelganda paytni ifodalab keladi: kechagi,yozgi kabi. A.K.Borovkov xulosa tariqasida oʻzbek tilida nisbiy sifatlar mavjud emasligini, ularning asosi oʻzbek tilidan oʻzlashganligini keltirib oʻtgan.

Shuningdek, bunday yangi oʻzlashmalar orfografiyada ham qiyinchilik tugʻdirdi. A.K.Borovkov ilmiy faoliyati davomida orfografiya masalalariga ham oʻz eʼtiborini qaratgan. Uning bu sohadagi ishlarida oʻzbek tiliga tarixiy rivojlanish jarayonida oʻzlashgan soʻzlar imlosidagi xatoliklar masalasi asosiy oʻrinni egalladi. Borovkov buni oldingi davr qoʻlyozmalarini oʻrganib tahlil qilgan yaʼni unlilarni toʻgʻri yozishda ikkilanishlar juda koʻp boʻlganligini taʼkidlab oʻtgan. Shu nuqtai nazardan 1929 yilda Samarqandda boʻlib oʻtgan imlo konferensiyasida isloh qilingan arab yozuvidan lotin grafikasi asosidagi yangi oʻzbek alifbosiga oʻtish qaroriga kelingan. Oʻz vaqtida lotin tarafdorlari lotin alifbosini oʻz davrining yoki kelajakning dunyoviy alifbosi boʻlishini taʼkidlashgan. K.Kautskiyning fikricha, gʻarbiy yevropaliklar tillaridan biri boshqalarini siqib chiqarib oʻzi dunyoviy tilga aylanadi. Demak, bundan koʻrinadiki,lotin alifbosi ham dunyoviy alifboga aylanishi mumkin. Ammo professor Borovkov bu fikrga qoʻshilmaydi. Uning fikricha yagona til va yozuv kelajakda bir nechta muammolar tugʻdiradi. Chunki umummillatga xizmat qiluvchi yagona til, albatta yagona yozuvni talab qiladi. Bunday yozuv esa stenografik yozuvga oʻxshab qoladi. Zamonaviy tilshunoslik mingta mustaqil tillarni oʻz ichiga oladi.

Umumiy holda oʻzbek tilshunosligida olim A.K.Borovkovning ilmiy faoliyatini oʻrganish va asarlarini tahlil qilish, keltirilgan asosli fikrlariga yanada chuqurroq yondashib fanga oʻz hissasini qoʻshgan olimlar metodikasini targʻib qilish bugungi yosh pedagog xodimlarning vazifalaridan biridir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:**

1. Dadaboyev H,Hamidov Z,Holmonova Z. Oʻzbek adabiy tili tarixi Toshkent.2007
2. Боровков А.К.Изменения и области узбекской лексики и новый алфавит.1940.
3. “Qizil Oʻzbekiston” 1940 yil №30
- 4.Uzoqov H. Oʻzbek tilshunoslari Toshkent. 1972
5. Nurmonov A. Oʻzbek tilshunosligi tarixi.Toshkent.2002.